FRAZEMALARNING MILLIY-MADANIY SEMANTIKASI

Fayzullayeva Dilnoza Narimonovna
dotsenti (PhD) f.f.f.d
“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” kafedrasi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Annotatsiya: Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘rganilayotgan frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari, ularning milliy-madaniy sema sifatida o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishga asosiy e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: lingvokulturolog, sema, etnik, maqol, o‘zbek, til, xalq, tarix, muloqat, udum.

Annotation: This article focuses on the linguocultural features of the studied phraseological units, emphasizing their unique characteristics as national and cultural semes.

Keywords: linguoculture, seme, ethnic, proverb, Uzbek, language, people, history, communication, tradition.

Milliy-madaniy birliklar, asosan, muayyan xalqqa xos etnik jihatlar, uning milliy-madaniy dunyoqarashi, an’ana va udumlari, tarixiy an’analari bilan bog‘liq odob-axloq, muloqot me’yorlari, o‘ziga xos milliy ruhdagi ijod namunalari, maqol, matal, ibora, majoziy ifodalar, ko‘chma ma’noli birliklardan iborat birliklardir. Shunsi xarakterliki, til birliklarida milliy-madaniy belgi turlicha aks etadi. Ayrim birliklar bevosita milliy xoslanganlik belgisini namoyon qilsa, ba’zi birliklarda bu belgi bilvosita yuzaga chiqadi. Ayrim so‘zlarda madaniy sema lug‘aviy ma’no bilan yonma-yon yashasa, ba’zilarida ularning ko‘chma ma’nosi orqali yuzaga chiqadi. Masalan, iboralar voqelikni ko‘chma ma’no orqali aks ettirgani bois ularda bevosita milliy-madaniy belgi aks etadi. O‘zbek tilidagi beshik leksemasi o‘z ma’nosida o‘zbek xalqining milliy qadriyatlaridan biriga aylangan predmetni bevosita aks ettirganligi bois milliy-madaniy birlik hisoblanadi. Bunday vaziyatda til birligiga xos madaniylik belgisi uning lug‘aviy ma’nosi orqali anglashiladi. Bunday birliklar tarixan shakllangan bo‘lib, millat madaniy hayotida muhim o‘rin egallaydi va boshqa tillarda kuzatilmaydi. Til madaniy hodisa sifatida e’tirof etilsa-da, uning tizimida millatning madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi maxsus birliklari alohida guruhlanadi. Bunday birliklar muayyan xalqqa xos etnik, ijtimoiy-madaniy qarashlar, milliy an’analar, udumlar, odob-axloq, muloqot me’yorlari kabilarni anglatadi. Bu kabi ekstralingvistik ma’lumotlarni o‘zida jamlagan til birliklari milliy-madaniy birliklar deb ataladi. V.V.Vorobyev bunday birliklarni lingvokulturema termini bilan ifoda etishni taklif qilgan edi. Uning fikricha, bu termin til birligining nafaqat lisoniy ma’nosini, balki madaniyat segmentini ham qamrab oladi [1].

Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo‘lagini aks ettiruvchi so‘zlar, frazeologik birliklar, so‘z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko‘rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o‘sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o‘zining mazmun va ifoda planiga ega bo‘lishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko‘rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. “Lingvokulturema” tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, “zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko‘rinishida, ya’ni so‘zlar vositasida ifoda etadi” [2].Shunga binoan FBlarning lingvomadaniy jihatdan semantikasini yoritishga harakat qildik.

Til birliklarida milliy-madaniy belgi turlicha aks etadi. Ayrim birliklar bevosita milliy xoslanganlik belgisini namoyon qilsa, ba'zi birliklarda bu belgi bilvosita yuzaga chiqadi. Ayrim so'zlarda madaniy sema lug'aviy ma'no bilan yonma-yon yashasa, ba'zilarida ularning ko'chma ma'nosi orqali yuzaga chiqadi. Masalan, iboralar voqelikni ko'chma ma'no orqali aks ettirgani bois ularda bevosita milliy-madaniy belgi aks etadi. O'zbek tilidagi beshik leksemasi o'z ma'nosida o'zbek xalqining milliy qadriyatlaridan biriga aylangan predmetni bevosita aks ettirganligi bois milliy-madaniy birlik hisoblanadi. Bunday vaziyatda til birligiga xos madaniylik belgisi uning lug'aviy ma'nosi orqali anglashiladi. Bunday birliklar tarixan shakllangan bo'lib, millat madaniy hayotida muhim o'rin egallaydi va boshqa tillarda kuzatilmaydi. Tilshunoslikda bu tipdagi milliy-madaniy birliklar ekvivalentsiz leksika yoki realiyalar deb ham yuritiladi. "O'zbek tilidagi do'ppi, atlas (mato), yaktak, belbog', karnay-surnay, nog'ora leksemalarida madaniy sema ularning lug'aviy ma'nosi bilan birga gavdalanadi. Bunday leksemalar orqali bevosita o'zbek xalqi, uning milliy urf-odatlariga ishora qilinadi. Xuddi shunday, rus tilidagi samovar, qozoq tilidagi beshbarmoq leksemalarida ham madaniy sema bevosita anglashilib turadi" [1].

Frazeologizmlarning muayyan guruhi xalqlarning urf-odatlari, an'analari va irimlari ta'sirida shakllanadi. Jumladan, o'zbek xalqida azafdan quloqtishiar odati mavjud. Quloqtishlar, ya'ni beshikketdi odati hozirgi kunda Surxondaryo viloyatining ayrim tuman va qishloqlarida saqlanib qoigan. Oilada qiz bola tug'ilib, chillasi chiqqandan keyin beshik lo'y o'tkaziladi. Qarindosh urug', do'st-og'aynilar yangi farzand bilan muborakbod etgani bu oilaga kelishadi. Shunda o'g'illik birodarlardan biri niyat qilib, yetaklab borgan 5-6 yashar o'g'ilchasiga chaqaloq qizchani tilaydi, so'ratadi. Qizi bor oilaning buvasi, buvisi, ota-onasi va qarindosh-urug'lari rozilik berishsa, "quloqtishlar" odati o'tkazilgan. Boyagi bolakay beshikda yotgan qizaloqning "qulog'ini tishlagan. Qadim zamonlarda bunday "qudachilik" ana'analari qabilalar o'rtasidagi urush-janjallarga chek qo'ygan. Tinch qo'shnichilikni saqlab qolgan [3]. Mazkur odatni ifodalovchi "qiz bolani go'dakligidayoq bo'ljak qayligi deb belgilab qo'ymoq ma'nosidagi" "qulog'ini tishlamoq " iborasi qo'llaniladi.

O'zbek xalqining nikohlash marosimi, unashtirish odati bilan bog'liq iboralari tarkibida somatik so'zlar faol qatnashadi. "Boshlarini qovushtirmoq", "boshlarini biriktirmoq", "boshlarini qo'shmoq", "boshini ikkita qilmoq", "bir yostiqqa bosh qo'ymoq" va h.k.

O'zbek oilasida bola tug'ilishi bilan chilla davri boshlanadi. Ayol farzand ko'rishi bilan maxsus sharoitda saqlanib turli ins-jinslar, kasalliklardan himoya qilingan. An'anaga ko'ra ona va bola qirq kungacha chillali uydan chiqmasligi, bolali uyga begona odam kirmasligi, chillali uyda chiroq o'chmasligi kerak. Chilla an'anasi "tuqqaniga qirq kun bo'ldi" ma'nosidagi chillasi chiqdi iborasi bilan ifodalanadi: Chillasi chiqishi bilan Hadya ham alohida qizlar yacheykasi tuzishga boradi.

Frazeologik birliklarning tayanch komponenti sifatida tarixiy va diniy-mifologik mashhur shaxslarning nomlari kelishi mumkin: Xo'ja ko'rsinga "shunchaki nomigagina", Musoning alamini Isodan olmoq "aybdor chyetda qolib, aybsiz kishiga qarshi ish tutmoq", Xizrni yo'qlasam bo'lar ekan "kimnidir ko'rish istagi qo'qisdan ro'yobga chiqqanda aytiladigan ibora". Turk tilida: Bir Köröğlü bir Ayvaz "bola-chaqasi yo'q er-xotin", Derdini Marko Paşa'ya anlat "dardini eshitadigan hech kim yo'q". Turli geografik joy nomlari ham frazeologik birliklarning tayanch komponentlari vazifasida keladi. Masalan, o'zbekcha frazeologik birliklar tarkibida O'zbekiston hududida joylashgan shahar, qishloq, daryo va sahrolar nomlari uchraydi... Frazeologik birliklar tarkibida qo'llanilgan toponimlar o'zlari jonlantiradigan sifat va belgilar, chunonchi, uzoqlik, saxiylik, taqvodorlik kabi alomatlar timsollari sifatida namoyon bo'ladi: Beva xotinga Buxorodan it xuradi, onasini

Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq frazeologik birliklari tarkibidagi “Buxoro”, “Uchqo‘rg‘on”, до Москвы не перевешаеш, кричать во всю Ивоносвкую frazeologizmlari tarkibidagi “Москва”, “Ивановская” O‘zbekiston va Rossiya hududlarida joylashgan geografik nomlar bo‘lsa, язык до Киева, tuxumi Bag‘doddan kelibdimi?, Do in Rome as the Romans do nomlaridir [5] yoki “umid qilgan, kutgan narsaning teskarisi bo‘lib chiqdi” ma’nosidagi Göründü Sıvas’ın bağları, “bu ish hozircha bo‘lgani bilan keyinchalik orqasidan g‘avg‘o chiqadi” ma’nosidagi Karaman’ın koyunu, sonra çıkar oyunu tarkibida foydalanilgan “Kiyev”, “Bag‘dod”, “Rome (Rim)”, “Sıvas”, “Karaman” shaharlari rus, o‘zbek, ingliz va turk xalqlari uzoq asrlar davomida munosabat-muloqotda bo‘lib kelgan shahar nomlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Буслаев Ф.И. Руские пословицы и поговорки, собранные и объяненные. – Москва: Русский язык, 1954. – 232 с.
2. .Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: РУДН, 1997. – 477 с.
3. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке. Автореф дисс. … канд. фиол. наук. – Ташкент.1963. 19 с;
4. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika.- Toshkent: Noshir, 2019. – 168 b.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студ. выс. учеб. заведений.- Москва: Академия. 2001. –183 с.
6. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Дарслик. –Тошкент: Фан, 2005. – 352 б.
7. Odilov S. O‘zbek tili o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. – Qo‘qon - 2008.